XALQ DEPUTATLARI NISHON TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2024 - yil 12 - yanvar VI-82-2-4-65-K/24 Nishon tuman hokimligi

Nishon tuman bo‘yicha 2024-yilda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig‘i hamda yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashning minimal miqdoriga koeffitsiyentlarni qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412, 429 va 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 10-noyabrdagi 19/14-112244-sonli, viloyat Soliq boshqarmasining 2023-yil 4-dekabrdagi 19/10-98159-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Nishon tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan Nishon tumanida yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun mutlaq miqdori 28,8 mln.so‘m hamda jismoniy shaxslarga 1 kv.metr uchun bazaviy soliq stavkasining mutlaq miqdori 240 so‘m, yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda viloyatning tumanlarida ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun 720,0 ming so‘m minimal miqdor belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat Iqtisodiyot va moliya Bosh boshqarmasi hamda viloyat Soliq boshqarmasining hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining kelgusi yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib, Nishon tuman bo‘yicha 2024-yilda yuridik va jismoniy

shaxslarning bazaviy yer solig‘i stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan oshiriluvchi koeffitsiyentni qo‘llash hamda yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun belgilanadigan minimal miqdorga nisbatan kamaytiriluvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

3. Nishon tumanining iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, 2024-yilda qishloq xo‘jaligi uchun mo‘lajallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan oshiruvchi koeffitsiyentlar **1-ilovaga**, jismoniy shaxslar bo‘yicha *(dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari)* mutlaq miqdorda 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan oshiruvchi koeffitsiyent **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari Nishon tuman Kengashining mahalliy budjet prognozlarini inobatga olib, 1 va 2-ilovaga asosan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarga nisbatan tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash vakolati inobatga olinsin.

5. Nishon tuman soliq inspeksiyasi 2024-yil uchun yuridik shaxslarning *(yirik soliq to‘lovchilardan tashqari)* mol-mulkiga solinadigan soliqni ushbu qaror bilan, qishloq xo‘jaligida mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining xalq deputatlari Nishon tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan stavkalar asosida hisoblanishi va belgilangan tartibda undirilishini ta’minlasin.

6. Nishon tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi mazkur qarorni viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

7. Xalq deputatlari Nishon tuman Kengashining 2023-yil 16-yanvardagi “2023-yil uchun Nishon tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig‘ining aniq miqdorlarini belgilash to‘g‘risida”gi VI-66-2-4-65-K/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9**.** Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Nishon tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish,

investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Karimov hamda Nishon tuman hokimining birinchi o‘rinbosari E.Boboqulov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **U.F.Usmanov**

Xalq deputatlari Nishon tuman
Kengashining
2024-yil 12-yanvardagi
VI-82-2-4-65-K/24-son qaroriga
1-ilova

1-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘lajallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi

KOEFFITSIYENTLAR

so'mda

T/R	Hududlar	Soliq kodeksiga asosan mutlaq soliq stavkasi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3 gacha)	2024-yil uchun yer solig‘ining stavkasi (so‘mda)
1	"Qirqquloch" QFY	28 800 000	1,1	31 680 000
2	"Nishon" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
3	"Oydin" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
4	"Paxtaobod" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
5	"Orzu bo‘stoni" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
6	"Jalajin" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
7	"Yoshlar diyori" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
8	"Katta anhor" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
9	"Oq oltin" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
10	"Kaptarli" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
11	Yangi hayot FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
12	"Baynalminal" FO‘O‘BO	28 800 000	1,3	37 440 000
13	"Balxiyak" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
14	"Gulzor" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
15	"Ulug‘bek" FO‘O‘BO	28 800 000	1,3	37 440 000
16	Guliston FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
17	Bog‘ishamol FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
18	"Paxtazor" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
19	"Kimyogar" FO‘O‘BO	28 800 000	1,3	37 440 000
20	"Samarqand" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
21	"Ko‘ksoy" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
22	"Nurchi" FO‘O‘BO	28 800 000	1,3	37 440 000
23	Yangi Nurchi FO‘O‘BO	28 800 000	1,3	37 440 000
24	"Nuriston" FO‘O‘BO	28 800 000	1,3	37 440 000
25	Bo‘ston FO‘O‘BO	28 800 000	1,3	37 440 000
26	"Janub mash’ali" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
27	"Istiqbol" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000

T/R	Hududlar	Soliq kodeksiga asosan mutlaq soliq stavkasi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3 gacha)	2024-yil uchun yer solig‘ining stavkasi (so‘mda)
28	"Yangiobod" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
29	"Shirinobod" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
30	Gulobod FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
31	"A.Qodiriy" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
32	"Ibn-Sino" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
33	"Do‘stlik" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
34	"Tinchlik" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
35	"Obi-hayot" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
36	"Obod" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
37	"Navro‘z QFY" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
38	"Umr bunyodkori" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
39	"Yuksalish" FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
40	Chaman FO‘O‘BO	28 800 000	1,1	31 680 000
41	"Paxtakor" FO‘O‘BO	28 800 000	1,3	37 440 000
42	"Navbahor" FO‘O‘BO	28 800 000	1,3	37 440 000

Izoh: *tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari yuridik shaxslarning yer solig‘i stavkalarini hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega.*

Xalq deputatlari Nishon tuman
Kengashining
2024-yil 12-yanvardagi
VI-82-2-4-65-K/24-son qaroriga
2-ilova

2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) **mutlaq miqdorda 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi**

KOEFFITSIYENTLAR

so'mda

T/R	Hududlar	Soliq kodeksiga asosan mutlaq soliq stavkasi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3 gacha)	2024-yil uchun yer solig‘ining stavkasi (so‘mda)
1	"Qirqquloch" QFY	240	1	240
2	"Nishon" MFY	240	1	240
3	"Oydin" MFY	240	1	240
4	"Paxtaobod" MFY	240	1	240
5	"Orzu bo‘stoni" MFY	240	1	240
6	"Jalajin" MFY	240	1	240
7	"Yoshlar diyori" MFY	240	1	240
8	"Katta anhor" MFY	240	1	240
9	"Oq oltin" MFY	240	1	240
10	"Kaptarli" MFY	240	1	240
11	Yangi hayot FO‘O‘BO	240	1	240
12	"Baynalminal" MFY	240	1,2	288
13	"Balxiyak" MFY	240	1	240
14	"Gulzor" MFY	240	1	240
15	"Ulug‘bek" MFY	240	1,2	288
16	Guliston MFY	240	1	240
17	Bog‘ishamol FO‘O‘BO	240	1	240
18	"Paxtazor" MFY	240	1	240
19	"Kimyogar" MFY	240	1,2	288
20	"Samarqand" MFY	240	1	240
21	"Ko‘ksoy" MFY	240	1	240
22	"Nurchi" MFY	240	1,2	288
23	Yangi Nurchi FO‘O‘BO	240	1,2	288
24	"Nuriston" MFY	240	1,2	288
25	Bo‘ston FO‘O‘BO	240	1,2	288
26	"Janub mash’ali" MFY	240	1	240
27	"Istiqbol" MFY	240	1	240

T/R	Hududlar	Soliq kodeksiga asosan mutlaq soliq stavkasi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3 gacha)	2024-yil uchun yer solig‘ining stavkasi (so‘mda)
28	"Yangiobod" MFY	240	1	240
29	"Shirinobod" MFY	240	1	240
30	Gulobod FO‘O‘BO	240	1	240
31	"A.Qodiriy" MFY	240	1	240
32	"Ibn-Sino" MFY	240	1	240
33	"Do‘stlik" MFY	240	1	240
34	"Tinchlik" MFY	240	1	240
35	"Obi-hayot" MFY	240	1	240
36	"Obod" MFY	240	1	240
37	"Navro‘z QFY" MFY	240	1	240
38	"Umr bunyodkori" MFY	240	1	240
39	"Yuksalish" MFY	240	1	240
40	Chaman MFY	240	1	240
41	"Paxtakor" MFY	240	1,2	288
42	"Navbahor" MFY	240	1,2	288

Izoh: *tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari jismoniy shaxslarning yer solig‘i stavkalarini hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega.*